

1.2. FIZIKA FANINI O'RGANISHDAGI MUHIM TAMOYILLAR

Fizika fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun siz ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lishingiz kerak. Quyidagi xususiyatlardan qaysilari sizga mos kelishini daftaringizga yozing.

TADQIQOTCHIGA XOS MUHIM XUSUSIYATLAR:

- **Men qiziquvchanman.** O'zimga ko'p ilmiy savollar beraman va ularga javob izlayman;
- **Men qat'iyatliman.** Ishonch bilan qaror qabul qilaman. Biror ishim muvaffaqiyatsiz chiqsa ham osonlikcha taslim bo'lmayman;
- **Men erkin fikrlayman.** Muammoni hal etishning ko'p usullari bor, shuning uchun boshqalarning fikriga ham quloq tutaman. Qarashlarim xato bo'lsa, o'zgartirishga tayyorman;
- **Men hamkorlikda ishlay olaman.** Atrofimdagi insonlar bilan hamjihatlikda ishlashdan zavqlanaman;
- **Men adolatli va xolis bo'la olaman.** O'zimga ma'qul ma'lumotni eng ishonchlisi yoki eng to'g'risi deb turib olmayman. Tadqiqot natijalarini xolis qayd etaman va xulosalarimni asoslash uchun dalillar izlayman;
- **Men skeptikman (shubhalanuvchiman).** O'qib-o'rgangan ma'lumotlarimning barchasini mutlaq haqiqat deb bilmayman. Ishonish bilan birga, ikkilanish va shubhalanishni ham hisobga olaman;
- **Men kamtarman.** Muvaffaqiyatimdan mag'rurlanib ketmayman. Xatolarimni tan olishga yoki tuzatishga doim tayyorman;
- **Men rostgo'yman.** O'zim istagan natijaga erishish uchun yolg'on ma'lumotlardan foydalanmayman. Atrofimdagilarni ham aldamayman;
- **Men mas'uliyatliman.** Yuqorida aytilgan har bir shaxsiy shartlarimga amal qilishga intilaman.

Ushbu xususiyatlar sizga fanni o'rganish va amaliyotda qo'llashingizda kerak bo'ladigan ba'zi ijobiy tamoyillardir.

Olimlar atrofida olamning tabiatini bilishni yaxshi ko'radilar. Ular paydo bo'lgan savollarga javob topish uchun g'oyalarni taklif qiladilar. Olimlar o'z g'oyasini sinab ko'rish, dalillarni to'plash uchun kuzatishlar olib boradilar va tajribalar o'tkazadilar. Ular tadqiqot metodlari yoki tajribalari muvaffaqiyatsizlikka uchraganida ham qat'iyat bilan izlanishda davom etadilar, muammolarni hal qilishning turli usullarini o'ylaydilar va doim erkin fikrlaydilar.

Nima uchun olimlar o'zaro hamkorlik qilishlari va xolis fikrli bo'lishlari muhim?



Muhim xulosalar

Fanni o'rganish va bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun kerak bo'ladigan ijobiy xususiyatlar: qiziqish, qat'iyat, erkin fikrlash, hamkorlik, odillik, skeptik qarash, kamtarlik, rostgo'ylik, mas'uliyatlilik.



Bilimingizni sinab ko'ring

Mariya Sklodovskaya – Kyuri

Mariya Sklodovskaya 1867-yil 7-noyabrda Polshada tug'ilgan. 1883-yilda ayollar gimnaziyasini oltin medalga bitirib, Polshadagi erkaklar universitetiga o'qishga kirmoqchi bo'lganida ulardan rad javobni olgan.

1891-yilda Mariya Parijdagi Sorbonna universitetiga o'qishga kiradi. Tashqaridan moddiy yordam yo'qligi tufayli kechqurunlari xususiy maktablarda dars beradi. 1893-yilda fizikadan, keyingi yili matematikadan magistr darajasini oladi. U ilmiy faoliyatini vatanida davom ettirish uchun bir necha bor urinadi. Lekin ayol kishi bo'lgani tufayli bunga ruxsat berishmaydi. Noiloj yana Parijga qaytib, ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan birga, Oliy maktabda dars beradi. 1895-yilda hamkasbi Pyer Kyuri bilan turmush quradi. Ular birgalikda radioaktivlik hodisasini o'rganish bo'yicha ilmiy faoliyat olib boradilar.

Dunyoda birorta olim Mariya Kyuri kabi shon-shuhratga ega bo'lmagan. U 10 ta ilmiy sovrin va 16 ta medal sohibi. Mariya Kyuri 106 ta akademiya, ilmiy tashkilotlar va jamiyatlarning faxriy a'zosi.

1903-yilda Mariya va Pyer birgalikda radioaktivlik hodisasi bo'yicha tadqiqotlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. 1911-yilda Mariya Kyuri kimyoni rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari uchun ikkinchi bor Nobel mukofotiga loyiq topildi.

Mariya Kyuri qanday ijobiy xususiyatlari bilan bunday yutuqlarga erishgan?

Bu ma'lumotlarni kichik guruhlarda o'rganib chiqing va o'z fikr-mulohazalaringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.